



2023-yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi -16 556,9 mlrd. so‘mni, yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar -16 002,7 mlrd. so‘m (104,2 % ni), o‘rmon xo‘jaligi -503,9 mlrd. so‘m (102,6 % ni), baliq xo‘jaligi -50,3 mlrd. so‘m (112,9 % ni) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 10,7 % ni tashkil etdi.

**16 556,9****Samarqand viloyati bo‘yicha
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da




Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi(%)



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliq xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 96,7 % dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,0 % o‘rmon xo‘jaligi, 0,3 % baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023-yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Pasdarg‘om (1 753 mlrd. so‘m) va Urgut (1 703 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo‘rg‘on shahri (84 mlrd. so‘m) va Samarqand shahri (105 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur‘atlari Oqdaryo (116,0 %), Bulung‘ur (113,3 %), Urgut, (109,7 %) hamda Napay (108,4 %) tumanlarida kuzatildi. Kattaqo‘rg‘on shahar (87,9 %) va Kattaqo‘rg‘on (90,7 %) tumanida esa aksincha o‘sish sur‘atlari kuzatilmadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish (o'zgarish) sur'ati, %




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 15887,3 mlrd. so'mni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 5367,7 mlrd. so'm (106,5 %) ni, chorvachilik mahsulotlari 10519,6 mlrd. so'm (102,4 %) ni tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi (%)

33,8 %
Dehqonchilik
mahsulotlari




66,2 %
Chorvachilik
mahsulotlari

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,6 % -dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 20,6 % -fermer xo'jaliklariga, 1,8 % -qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da




2023-yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toyloq tumanida (39,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahrida (99,6 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Samarqand tumanida (9,2 %) qayd etildi.

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarida (0,0 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Samarqand tumanida (56,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urgut tumanida (0,1 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2023-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 5367,7 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 33,8 % ni tashkil qildi.

Don jami



**Yetishtirilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**



- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 450,5 ming tonna don (2022- yilning yanvar- iyuniga nisbatan 17,0 % ga koʻp) yetishtirilgan. Don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha

tahlil qilinganda. Don yetishtirishning umumiy hajmidan 83,5 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna**




Sabzavotlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 302,7 ming tonna sabzavotlar (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 80,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tn.




O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 308,6 ming tonna kartoshka (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 7,7 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 86,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **kartoshka** yetishtirish
hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 14,8 ming tonna poliz ekinlari (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,6 % ga ko'p) yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 74,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **poliz** ekinlari yetishtirish
hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 88,0 ming tonna meva (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Meva yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva yetishtirish umumiy hajmidan 80,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




**Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha meva va rezavorlar
yetishtirish hajmi, tonna**




Uzum


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 376 tonna uzum (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 4,8 % ga kam) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilganimizda, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 88,5 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Samarqand viloyati hududlari
bo'yicha **uzum** yetishtirish
hajmi, ming tonna




Chorvachilik



2023-yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 10 519,6 mlrd. soʻmni yoki 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 66,2 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining yetishtirish imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 145,0 ming tonna goʻsht (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,2 % ga koʻp), 672,5 ming tonna sut (2,3 % ga koʻp), 495,8 mln. dona tuxum (7,4 % ga koʻp), 21 728 dona qorakoʻl teri (0,7 % ga koʻp) yetishtirildi va 2 411,9 tonna baliq (16,4 % ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 145,0 ming tonna go'sht (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,2 % ga ko'p), yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 84,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Samarqand viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, ming tonna




Sut


Hajmi, ming tn.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan
mahsulotning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 672,5 ming tonna sut (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 2,3 % ga ko'p) yetishtirilgan. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 92,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Samarqand viloyati bo'yicha
yetishtirilgan
sut hajmi, ming tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Olingan tuxum
mahsulotining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 495,8 mln. dona tuxum (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 7,4 % ga ko'p) olingan. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 52,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.




Samarqand viloyati bo'yicha
olingan **tuxum**
hajmi, mln dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



**Ovlangan baliqni
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 411,6 tonna (2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 16,4 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 90,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Samarqand viloyati bo'yicha
ovlangan **baliq**
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni hamda o‘shish sur‘ati,




2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,7 % fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 0,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 8,7 % fermer xo‘jaliklariga, 87,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,0 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 14,3 % fermer xo‘jaliklariga, 84,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,7 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 33,9 % fermer xo‘jaliklariga, 48,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 18,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.


2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 619,3 ming taga yetdi.

2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 35,4 ming taga (2,2 %) ko'paydi.

Yirik shoxli qoramollar



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati
bo'yicha **yirik shoxli qoramollarning**
umumiy
bosh soni, ming bosh




2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 690,4 ming boshga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 17,7 ming taga (2,6 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati




**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 94,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 483,0 ming taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni 62,0 ming taga (2,6 %) ko'paydi.

Qo'y va echkilar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati



Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 87,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiy bosh soni,
ming bosh




2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 27 488 taga yetdi.


2022-yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni 882 taga (3,3 %) ko'paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



**Bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, otlarning bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 84,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.




Samarqand viloyati
bo'yicha **otlarning**
umumiy bosh soni, bosh




2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 11 925,9 ming boshga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni - 705,4 ming taga (6,3 %) ko‘p.

Parrandalar




**Bosh soning
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, parrandalarning soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 48,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Samarqand viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• (66)230-45-30
• (66)235-22-01